



PSYCHOLOGICAL PROBLEMS AFFECTING YOUTH'S PROFESSIONAL CHOICE

Turakulov B.N.

Associate Professor, Chirchik State Department of Psychology

buri20190312@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-6400-3314>

Abduqodirova D.E.

Teacher, Chirchik State Pedagogical University

abduqadirovadilobarbonu@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-4155-8330>

Abstract

This article discusses in detail the social problems that arise among young people in today's developing era in choosing the right profession and choosing a profession, as well as the psychological processes and problems that affect them.

Keywords: Profession, problem, choice of profession, youth, professional skills, school, family, psychologist, psychological problems.

Introduction

YOSHLARNING KASB TANLASHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Turakulov B. N.

Chirchiq davlat psixologiya kafedrasida dotsenti

buri20190312@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-6400-3314>

Abduqodirova D. E.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

abduqadirovadilobarbonu@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-4155-8330>



Annotatsiya:

Ushbu maqolada bugungi rivojlanib borayotgan davrda, yoshlar o‘rtasida to‘g‘ri kasb tanlash va kasb tanlashda bo‘layotgan ijtimoiy muammolar va ularga ta‘sir etayotgan psixologik jarayonlar hamda muammolarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: kasb, muammo, kasb tanlash, yoshlar, kasbiy mahorat, maktab, oila, psixolog, psixologik muammolar

Аннотация:

В статье подробно рассматриваются социальные проблемы, возникающие у молодых людей в современную развивающуюся эпоху при выборе правильной карьеры и профессии, а также психологические процессы и проблемы, которые на них влияют.

Ключевые слова: профессия, проблема, выбор профессии, молодежь, профессиональные навыки, школа, семья, психолог, психологические проблемы

Inson tug‘ilib voyaga yetar ekan, ulg‘aygani sari o‘zidagi xohish-istakdan, bilim-tajribadan va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o‘zi xohlagan kasbni tanlaydi. Kasb tanlash inson hayoti davomidagi eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi.

Bizning mustaqil davlatimiz bugungi kunda har tomonlama o‘sib, rivojlanib borayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Davlatning yanada rivojlanishi uchun bilimli, zukko, qolaversa, o‘z kasbining egasi, mutaxassisi bo‘lmish yoshlarning o‘rni beqiyosdir. Yurtimizda biz yoshlarning sifatli ta‘lim olishimiz uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda maktab yoshidanoq o‘quvchilar o‘zlariga muhim bo‘lgan kasbni to‘g‘ri tanlash kerakligi, ularning kasbga yo‘naltirish masalalari maktab davridanoq o‘rgatilib kelinmoqda.

Kasb tanlash bu o‘ziga xos bo‘lgan murakkab jarayon bo‘lib, u inson va uning psixologik, fiziologik, ijtimoiy, moddiy imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Kasb tanlashning ortida inson yotadi - bu uning ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu fikr har bir kasb tanlovchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondoshish kerakligini anglatadi. Yoshlarning kasb tanlashlariga



ko'pgina omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda birinchi o'rinda shaxsning kasbga bo'lgan ehtiyoji, uning motivlari, layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyati kabilar turadi. Yana shuni aytilish kerakki, kasb tanlashda insonning jinsiga asosan ham kasblarga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Bu kabi omillarni hisobga olgan holda o'quvchilarni kasb tanlashlariga yo'nalish berish o'ziga xos tomonlarda ko'zga tashlanadi. Bu kasbiy maorif yoki kasblar haqidagi bilimlar berish hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni kasbning mohiyati, har bir kasbni inson oldiga qo'yadigan talablari va vazifalari, jamiyatga kerakli darajalari kabilar bilan tanishtiriladi. Kasb maorifi insonni yoshi, jinsi, saviyasi, bilimlari, aql - farosati kabi tomonlarga asosan xilma xil tarzda amalga oshiriladi.

Bugungi kunda yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir etayotgan muammolardan biri-oilaviy muhit hisoblanadi. Bunday holatda bola o'zining qiziqishidan, bilimidan, intilishidan kelib chiqqan holda kasb tanlay olmaydi. Kimdir "ota" kasbini tanlashga uni davom ettirishga majbur bo'ladi. Ushbu holat farzand uchun eng katta xatolardan biri hisoblanadi. Kasb tanlash oddiy yoki oson jarayon emas. Kasb tanlashni farzandni o'ziga qo'yib berish kerak. Sababi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek har bir yosh avlod o'zining qiziqishidan kelib chiqqan holda kasb tanlaydi.

Kasb tanlash o'smirlar uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi. Shaxsning subyektiv moyilliklari hamda u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Biroq o'smirlarda yaqqol ifodalangan, barqaror va faol moyillik har doim ham kuzatilmaydi. Kasb tanlash arafasida turgan o'smirlarning mazkur sohaga qanchalik mos, moyil ekanligi faqatgina faoliyat kuzatuv, nazariy tajriba jarayonidagina aniqlanadi. Kasb tanlash motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar juda ko'p bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro mutanosiblikka ega. O'smirning kasb tanlashiga ta'sir etish kuchiga ko'ra asosiy o'rinni do'stlari va o'rtoqlari bilan bir-birini tushunish munosabatlari tashkil etadi. Ikkinchi o'rinni tez ta'sir etuvchi ommaviy axborot vositalari - kitoblar, gazeta, jurnal, kinofilm, teleko'rsatuvlar, ayniqsa, internet egallaydi. Uchinchi o'rinda pedagogik jamoa, sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ta'lim muassasasi direktori va o'rinbosarlari, mahalladoshlari turadi. To'rtinchi o'ringa oiladagi bevosita ma'naviy-ma'rifiy muhitni qo'yish mumkin. Beshinchi o'rinni o'quv fanlarini



o'zlashtirish jarayoni egallaydi. Ya'ni, o'spirin qanchalik yuqori darajada o'zlashtirsa o'quv fanlari uning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'z samarasini beradi. Keyingi navbatda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-foydali va ishlab chiqarish mehnatini ko'rsatish mumkin

Shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb tanlash yoshlarning kasbiy rivojlanishini kafolatlovchi eng samarali omil sifatida ko'p psixolog olimlar tomonidan e'tirof e'tiladi. Chunki, har bir insonda qiziqish, ijtimoiy muhit, qobiliyat va salohiyat turlicha. O'z qiziqqan sohasida faoliyat yuritish insonga kasbidan zavqlanish, qiyinchilik paytlarida kuch va energiya beradi. Ko'pincha bu omilga e'tibor berib kasb tanlaydigan insonlar voyaga yetgan, tanqidiy fikrlashi shakllangan, mustaqil fikrga ega bo'ladilar (Betz va Voyten, 1997). Tadqiqotlarning ko'pchiligi, shaxsiy qiziqishlari va salohiyatidan kelib chiqib kasb tanlagan insonlarda kasblaridan qoniqish hissi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlarning to'g'ri kasb tanlashi har tomonlama, qolaversa, iqtisodiy taraflama ham manfaatlidir. Yoshlarda kasb tanlash bo'yicha psixologik muammolar kuzatilayotgan bo'lsa tajribali psixologlarga uchrashi lozim. Chunki bizning yurtimizga o'z kasbining yetuk mutaxassisleri kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.R. Abduraxmonov, Z.E. Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi. [Matn]: / -T.: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018, 352 bet.
2. Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna, Ergasheva Gulnora Oltiboy qizi O'SMIRLARDA KASBGA MOYILLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI. ISSN 2181-1717 (E) Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №3)
3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020 y.
4. Tilovova Qizlarxon. YOSHLARNING KASB TANLASHIDA PSIXOLOGIK VA SOTSIOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME 6 ISSUE-5(30-May)